

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINI KASBIY KREATIVLIGINI BAHOLASH BOSQICHLARI

Pozilova Shahnoza Xaydaralievna

Professional ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti (DSc)

Annotatsiya. Maqolada differensial yondashuv asosida professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy kreativligini baholash yo'llari berilgan. Shuningdek, ta'lim differensiatsiyasi tushunchasining pedagogik tarafdin tahlillari keltirilgan. O'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarda modul mazmuniga, tinglovchilar faoliyatiga va olinadigan yakuniy natijaga ko'ra tahlilining keltirilishi maqola mavzusining dolzarbligini ifodalaydi. Kasbiy kreativlikni baholashda bir qator olimlarning kreativlik qobiliyatini aniqlovchi so'rovnomalar bilan bir qatorda muallif tomonidan ishlab chiqilgan test namunasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: differensiatsiya, kasbiy kreativlik, professional ta'lim o'qituvchilari, differensial yondashuv, amaliy mashg'ulot

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ ЭТАПЫ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКИХ КАДРОВ

Позилова Шахноза Хайдаралиевна

Докторант Института развития профессионального образования (DSc)

Аннотация. В статье представлены способы оценки профессионального креативности педагогов профессионального образования на основе дифференцированного подхода. Также представлен анализ понятия образовательной дифференциации с педагогической точки зрения. Актуальность темы статьи выражается анализом деятельности преподавателей на практике по содержанию модуля, активности слушателей и конечному результату. При оценке профессионального креативности представлена разработанная автором тестовая выборка, а также опросники, определяющие креативность ряда ученых.

Ключевые слова: дифференциация, профессиональное креативность, педагоги профессионального образования, дифференцированный подход, практическая занятие

PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ASSESSMENT STAGES OF PROFESSIONAL CREATIVITY OF TEACHING STAFF

Pozilova Shahnoza Khaidaralievna

Doctoral student of the Institute of Professional Education Development (DSc)

Annotation. The article presents ways to assess the professional creativity of vocational education teachers based on a differentiated approach. An analysis of the concept of educational differentiation from a pedagogical point of view is also presented. The relevance of the topic of the article is expressed by an analysis of the activities of teachers in practice in terms of the content of the module, the activity of students and the final result. When assessing professional creativity, a test sample developed by the author is presented, as well as questionnaires that determine the creativity of a number of scientists.

Keywords: differentiation, professional creativity, vocational education teachers, differentiated approach, practical exercise

Kirish. Ta'limda differensiatsiya "ta'lim barcha uchun" (lifelong learning) [1] va inklyuziv ta'limda [2] dolzarb bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Mazkur qarashlar bir necha marotaba muhokamadan o'tkazilgan. Jumladan, Dakardagi jahon ta'lim forumi [3], Jenevadagi 48-YuNESKO xalqaro konferensiyasi va nihoyat jahon ta'limiga bag'ishlangan Incheon Deklaratsiyasi. Ta'lim -2030 Incheon Deklaratsiyasi [4] nafaqat inyulyuziv ta'limga, balki barcha uchun "lifelong learning" (Umr mobaynida ta'lim olish) maqsadini ilgari surgan.

Ta'limda differensiatsiya – bu turli ma'noga ega bo'lgan muhokamaga boy tushunchalardan

hisoblanadi. Mazkur tushunchani ta'lim bilan bir qatorda boshqa sohalarda ham qo'llashimiz mumkin. Skandinaviyalik olimlar Bondi [5] va Grahamning [6] ta'kidlashicha differentsiatsiya o'z holda guruhlash, kuzatish, oqimlash va tahlil qilish kabi faoliyat turlarini bajaradi.

Skandinaviyada "maktab barcha uchun" shiori ostida ta'lim muassasalari ishga tushirilganda differentsiatsiyaga yetarlicha e'tibor berilmagan, aksincha, uni pedagogik differentsiatsiyaga yo'naltirilgan [7]. Pedagogik differentsiatsiya Norvegiya, Shvesiya va Daniya davlatlarida umumiy tushuncha sifatida qo'llanilib, o'qitishning differensial shakli bo'lib qabul qilingan [8], [9], [10], [11].

Pedagogik differentsiatsiya auditoriyada ta'limni turli shaklda olib borish, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakasiga qarab saralash hamda turli xil topshiriqlar, quiz, test kabilardan foydalanib baholash imkoniyatini beruvchi ta'lim turidir.

Pedagogik differentsiatsiya - bu Skandinaviya atamasi tabaqalashtirilgan ta'lim va an'anaviy ravishda «tabaqalashtirilgan holda har bir ta'lim oluvchining o'sishini maksimal darajada oshirishga intiladigan, uning turli xil ta'lim usullari, qiziqishlari va ko'rsatmalarga javob berishning turli usullari borligini o'rgatadigan ta'lim vositasi sifatida qaraladi».

Tomlinsonning so'zlariga ko'ra, differensial ta'lim – bu faol va shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, turli yo'sinda fan mazmunini o'zlashtirish, g'oyalar yaratish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishga qaratilgan [12], [13].

O'zbekiston olimalaridan S.A.Movlonova differentsiyal yondashuvni uch tomonlama tahlil qiladi, ya'ni:

Psixologik: talabalarning barcha mumkin bo'lgan individual xususiyatlarini hisobga olgan holda va tegishli guruhlar tuzish;

Pedagogik: talabalarning qobiliyatlariga javob beradigan ta'lim tizimi;

Psixologik: o'quv materialini mazmunini farqlash [14].

Hozirgi kunda o'quv jarayonida differensial yondashuvning qo'llanilishi ta'lim oluvchilarning har tomonlama kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz jarayonida malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kreativligini asosida guruhlarga bo'lish hamda ularni baholashda differensial yondashuvni tanladik. Bunda biz o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarda modul mazmuniga, tinglovchilar faoliyatiga va olinadigan yakuniy natijaga ko'ra quyidagi tahlilni keltiramiz: (1.-jadval)

O'qituvchi tomonidan taqdim etiladigan kontent mazmuniga ko'ra	Tinglovchilarning faoliyat turiga ko'ra	Yakuniy natijani (kreativ g'oya) taqdim etilishiga ko'ra
<ul style="list-style-type: none"> ✓ Berilgan muammoni pedagogik, psixologik, texnik va falsafiy jihatdan o'rganish; ✓ Muammoning dolzarbligini aniqlovchi manbalar bilan tanishish, tahlil qilish; ✓ Tinglovchilarning kasbiy kreativlik darajasiga ko'ra sinflash; ✓ Tinglovchilarning kasbiy kreativlik qobiliyatiga ko'ra individual yoki juftlikda ishlash fikrini qo'llab-quvvatlash; ✓ Har bir tinglovchining o'zi olib boradigan fani yoki yangi kiritadigan fani yuzasidan tuzulmaviy yondashuvni qo'llash 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Berilgan topshiriqni turi, mukammalligiga qarab bosqichli amalga oshirish; ✓ Mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish; ✓ Guruhli hamkorlik va o'qitish usullari asosida differensial guruhlarni amalga oshirish; ✓ G'oyalarni prototiplashtirishda infografika platformalari hamda muammoli-evristik ta'lim metodlaridan, ya'ni grafik organayzerlardan foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Kasbiy kreativlikka ko'ra yaratilgan g'oyalarni baholashda turli kreativ ta'lim metod va texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni: <ul style="list-style-type: none"> - Guruhli yoki individual tarzda interaktiv taqdimotlar yaratish; - Flipchart lar yordamida g'oyalarni prototiplashtirish; - Storyboarding texnologiyasi asosida berilgan muammoni tizimlashtirish; - Workshoplarni yaratish va unda ishlash

Yuqorida keltirilgan tahlillarga ko'ra differensial yondashuv tinglovchilarga malaka oshirish jarayonidagi tabaqalashtirilgan o'qitish uslubiyotini nazarda tutadi, ya'ni, fan mazmuniga qiziqish, yangiliklarni o'zlashtirish va pedagogik amaliyotga qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

Ko'p bosqichli ta'lim – bu o'quv jarayonini tashkillashtirishning pedagogik texnologiyasi hisoblanadi. Bunda o'quv materialini ta'lim oluvchilar turli darajada o'zlashtirganlari uchun differensial yondashuv asosida guruhlarga ajratiladilar [15].

Tadqiqotimiz jarayonida biz tinglovchilarni kasbiy kreativligini aniqlashda ularni uchga ya'ni, past, o'rta va yuqori tabaqalashtirilgan guruhlarga ajratdik hamda topshiriqlarni tinglovchilarning kreativ qobiliyatiga, kasbiy kreativligi, pedagogik faoliyatning kreativ xarakteriga, pedagogik faoliyatning kreativ mahsuloti (kreativ g'oyalar) ko'ra taqsimladik. Bunda biz bir qator olimlarning kreativlik qobiliyatini aniqlovchi testlari va so'rovnomalaridan foydalandik. Jumladan,


Mezonlari	Diagnostik metod, test va anketa-so'rovnoma turlari
<i>Kreativ qobiliyatni aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - N.V.Vishnikovaning “Kreativlik” testi - Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi
<i>Kasbiy kreativligini aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - M.M.Kashapovning “Pedagogning kreativ kompetensiyasi” so'rovnomasi; - M.M.Kashapovning “Pedagogning rivojlanishiga ta'sir etadigan rag'batlantiruvchi omillar” so'rovnomasi” - L.D.Morozovaning “O'qituvchilarning loyiha metodlarida ishlash darajasini aniqlash”, “O'qituvchining pedagogik loyihalashga qiziqishi va motivatsiyasi”, “Pedagogik loyihalash ko'nikmasini baholashning individual xaritasi” anketa-so'rovnomasi
<i>Pedagogik faoliyatning kreativ xarakterini aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - O.F.Potemkina va Ye.V.Potemkinalarning “Sizning kreativ potensiyalingiz qanday?” so'rovnomasi; - <u>M.M.Kashapova, T.G.Kiseleva, T.V. Ogorodovalarning</u> “Kasbiy faoliyatda kreativlik” anketa-so'rovnomasi
<i>Pedagogik faoliyatning kreativ mahsulotini ishlab chiqish ko'nikmasini aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - Ishlab chiqilgan innovatsion-metodik loyihaning sifatini baholash. Baholash jadvali I.A.Kolesnikova tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan

Tinglovchilarning kreativlik qobiliyatini aniqlashning boshlang'ich test-so'rovnoma savollarini ishlab chiqdik. Test-so'rovnoma natijasiga ko'ra malaka oshirishda tahsil olayotgan professional ta'lim muassasasi o'qituvchilari differensial yondashuv asosida guruhlarga ajratiladi.

Test – so'rovnomaning namunaviy ko'rinishi:

№	Test – so‘rovnoma savollari	Past	O‘rta	Yuqori
	Kreativlik nima? A. Yangi g‘oyalarni yaratish B. Novatsion faoliyat turi S. Ijodiy fikrlash	V - 1	S - 2	A - 3
	Kasbiy kreativlik izohi berilgan qatorni ko‘rsating? A. Sohaviy muammolarni bashoratlash yoki original yechimini topish V. Sohaviy muammolarni guruhli tarzda yechish S. Sohaviy muammolarni kreativ metod va vositalar asosida yechimini topish	A - 1	S - 2	V - 3
	Kasbiy kreativligingizni rivojlantirishning optimal usulini ko‘rsating? A. Rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish asosida stajirovka kurslarida qatnashish V. Respublika miqyosidagi kasbiy professionallikni rivojlantiruvchi master-klass yoki seminar – treninglarda ishtirok etish S. Mustaqil ravishda internet resurslaridan foydalangan holda	A - 1	S - 2	V - 3
	Professional ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonini olib borishda kreativ muhitni tanlagan bo‘larmidingiz? A. Ha V. Auditoriya salohiyatidan kelib chiqib S. Men yetarli ko‘nikmaga ega emasman	S - 1	V - 2	A - 3
	Kreativ ta‘lim texnologiyalari berilgan javobni belgilang? A. Baliq skeleti V. Dizayn-fikrlash S. SCAMPER	A - 1	V - 3	S - 3
	Kasbiy muammolarni yechishda o‘zingizning qaysi shaxsiy qobiliyatlaringizni qadrlaysiz? A. Tezkor fikrlash V. Hamkorlikda ishlash S. Optimist	V - 1	S - 2	A - 3
	Kasbiy kreativlik faoliyatiga ko‘ra quyidagi qaysi turdagi faoliyatni ko‘rasiz? A. Infografik V. AKT kreativlik S. Metodik kreativlik	V - 1	S - 2	A - 3
	Kasbiy kreativlikni pedagogik faoliyatga zaruriyati bormi?	Mening fikrimcha		
	Pedagogik faoliyatingizda infografik platformalardan aynan qaysi turlaridan foydalanasiz? (masalan, canva.com)	Men pedagogik faoliyatimda bir qator infografik dasturlardan foydalanaman. Masalan.....		
d.	Siz o‘quvchilaringizni kreativ qobiliyatini rivojlantiruvchi qanday mavzudagi seminar, master-klass yoki ochiq darslarni o‘tkazishni istar edingiz?	Meni ta‘lim yo‘nalishibo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitganim uchun,, (“Men kreativman” namuna) kabi seminarlarni tashkil qilaman		
	Past daraja	10 - 18 ball		
	O‘rta daraja	19 - 24 ball		
	Yuqori daraja	25 - 30 ball		

Test –so‘rovnoma natijasida professional ta’lim o‘qituvchilarining birlamchi kreativ qobiliyatlari aniqlanada hamda ular quyidagi differensial yondashuv asosida guruhlarga ajratiladi (1.- rasm)



1.-rasm. Differensial yondashuv asosida o‘qituvchilarni guruhlarga ajratish tuzilmasi

Bundan kelib chiqqan holda professional ta’lim muassasasi o‘qituvchilarini kasbiy kreativligini aniqlaymiz. Bu qadamda biz M.M.Kashapov va L.D.Morozovalarning anketa-so‘rovnomalari mazmunidan kelib chiqib, tadqiqotimiz jarayonida aniqlangan muammolar asosida biz tomondan ishlab chiqilgan so‘rovnomadani foydalandik. Mazkur qadamda mashg‘ulotlar davomida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni kasbiy kreativlik yordamida tezkor yechimini topishga e’tiborimizni qaratdik va quyidagi muammoli vaziyatlarni o‘qituvchilarga taqdim etdik.

1-muammoli topshiriq	O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini tushuntirish jarayonida. Auditoriyada o‘qituvchilar orasida nosog‘lom kulgi yuzaga keldi. O‘qituvchining keyingi harakatini bashoratlang va fikringizni izohlang.
2-muammoli topshiriq	Mashg‘ulot o‘rtasida o‘qituvchilardan biri o‘rnidan turib eshikni yopib chiqib ketdi. O‘qituvchining keyingi harakatini bashoratlang va fikringizni izohlang.
3-muammoli topshiriq	Ma’lum bir sabablarga ko‘ra o‘qituvchi kelmagan hamkasbining darsini o‘tishga sinfga kirdi. Lekin yangi mavzu mohiyati o‘qituvchiga notanish. O‘qituvchining keyingi harakatini bashoratlang va fikringizni izohlang.
.....	

Xulosa. Bu kabi topshiriqlarni yechishda o‘qituvchilardan innovatsion-metodik loyihani yaratish va loyiha asosida muammolarga yechim topish hamda ishlab chiqilgan g‘oyalarni prototipini guruhli yoki individual tarzda yoritib berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

UNESCO. (1990). World declaration on education for all. Retrieved <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000127583>

UNESCO. (2008). Inclusive education: The way of the future. Retrieved http://www.ibe.unesco.org/fileadmin/user_upload/Policy_Dialogue/48th_ICE/General_Presentation-48CIE-English.pdf

UNESCO. (2000). The Dakar framework for action. Education for all: Meeting our collective commitments. Retrieved <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/1681Dakar%20Framework%20for%20Action.pdf>

UNESCO. (2015). Education 2030. Incheon Declaration. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. Retrieved: http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/education-2030-incheon-framework-for-action-implementation-of-sdg4-2016-en_2.pdf

Bondi, R. S., Dahnke, C., & Zusho, A. (2019). How does changing “One-Size-Fits-All” to differentiated instruction affect teaching? *Review of Research in Education*, 43(1), 336–362. <https://doi.org/10.3102/0091732X18821130>

Graham, L. J., De Bruin, K., Lassig, C., & Spandagou, I. (2021). A scoping review of 20 years of research on differentiation: Investigating conceptualisation, characteristics, and methods used. *Review of Education*, 9(1), 161–198. <https://doi.org/10.1002/rev3.3238>

Blossing, U., Imsen, G., & Moos, L. (2014). The Nordic education model. ‘A School for All’ encounters neo-liberal policy (Vol. 1). Policy implications of research in education. Springer.

Dale, E. L., & Wærness, J. I. (2003). *Differensiering og tilpassing i grunnopplæringen: Rom for alle - blick for den enkelte* [Differentiation and adaptation in primary and secondary education and training: Room for all with an eye on the individual]. Cappelen akademisk forlag.

Persson, B. (2010). Individualisering i svensk skola [Individualisation in the Swedish school system]. In N. Egelund (Ed.), *Undervisningsdifferentiering – Status og fremblik* [Teaching differentiation – Status and prospects]. Dafole 115–128.

Skaalvik, E. M., & Fossen, I. (1995). Tilpassing og differensiering: Idealer og realiteter i norsk grunnskole. In [Adaptation and differentiation: Ideals and reality in Norwegian primary education]. Tapir.

The Danish Evaluation Institute. (2011). *Undervisnings-differentiering som bærende pædagogisk princip* [Teaching differentiation as a leading pedagogical principle]. Retrieved <https://www.eva.dk/eva/projekter/2010/undervisningsdifferentiering-i-folkeskolen/projektprodukter/undervisningsdifferentiering-som-baerende-paedagogisk-princip>

Ravitch, D. (2007). *Edspeak: A glossary of education terms, phrases, buzzwords, and jargon*. Association for Supervision and Curriculum Development.

Tomlinson, C. A., Brighton, C., Hertberg, H., Callahan, C. M., Moon, T. R., Brimijoin, K., . . . Reynolds, T. (2003). Differentiating instruction in response to student readiness, interest, and learning profile in academically diverse classrooms: A review of literature. *Journal for the Education of the Gifted*, 27(2/3), 119–145. <https://doi.org/10.1177/016235320302700203>

Movlonova S.A. Azotli yuqori molekulyar birikmalar bo‘limini o‘qitishda differensial yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi. //Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari 2021 yil, 1-son. B-71-75

Зверева, Н. А. Разноуровневое и дифференцированное обучение как фактор повышения эффективности образовательного процесса в СПО / Н. А. Зверева. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы VIII Междунар. науч. конф. (г. Москва, июнь 2016 г.). — Москва : Буки-Веди, 2016. — С. 35-37. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/191>